

ЎТМИШГА НАЗАР

4 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 4, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 4, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2021

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

«Ўтмишга назар» илмий журнали таҳрири маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Садгуллаев Анатолий Садгуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Аззамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдишвили Майя
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети, Қозогистон

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент.
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Рахмонқуловова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Гоффоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
профессор, Телави давлат
университети, Грузия

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Дипломатия академияси,
Қозогистон Республикаси

Ширванова Тарана Амирата кызы
тарих фанлари номзоди, доцент
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Саипова Камола Давлаталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллаҳон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институту, Россия

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор
Давлат тарихи институту, Қозогистон

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор
Ал-Фаробий номидаги Қозогистон
Миллий университети, Қозогистон

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Дилярам Маниглисевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Талапов Баҳриддин Алижанович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори
(PhD)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Аброр Ҳазратқулов ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР.....	4
2. Фирзуза Мухитдинова ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ЯНГИ ҚЎШНИЧИЛИК МУНОСАБАТЛАРИ: ХАЛҚЛАР ҲАМДЎСТЛИГИ, ТИНЧЛИК ВА БАРҚАРОРЛИК САРИ ЯНГИ ҚАДАМЛАР.....	11
3. Хайрия Буриева ЎЗБЕК ХАЛҚИННИНГ II ЖАҲОН УРУШИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИГА ДОИР (ЭВАКУАЦИЯ ТАШКИЛОТЛАРИ ҲИСОБОТЛАРИ АСОСИДА).....	20
4. Дишод Комолов ЎЗБЕКИСТОН СУД ТИЗИМИ ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА.....	27
5. Lutfillo Mamasaidov МАКТАБЛАРДА TA’LIM SIFATI, MODDIY-TEXNIK BAZASIDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR (Namangan viloyati Xalq ta’limi tizimi misolida).....	39
6. Юлдуз Мардиева XIX-XX АСРЛАРДАГИ БУХОРО ВА АФГОНИСТОН МУНОСАБАТЛАРИ ТАРИХИДАН.....	46
7. Маъмуржон Расулов, Шоҳрухбек Қодиров ФАРФОНА ВИЛОЯТИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲА (Пир Сиддиқ ва “Киргил ота мозор” зиёратгоҳлари мисолида).....	53
8. Mustafo Rahmatullayev, Doston Abdurayimov AQSH VA XITOY O’RTASIDAGI O’ZARO MUNOSABATLAR TARIXIDAN.....	60
9. Гулдона Таниева, Анвар Таджиев МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МИНИАТЮРА САНЪАТИ ВА УНИНГ ТАРИХИЙ ТАРАҚҚИЁТИ.....	66
10. Шуҳратжон Тошматов XX АСРНИНГ 20-ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ СОЛИҚ СИЁСАТИ.....	74
11. Раҳмонали Ҳасанов XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ ВА XX АСР БОШЛАРИДАТУРКИСТОН ҮЛКАСИДА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ.....	81
12. Ахмеджан Юсупов ШАРҚИЙ ОРОЛБҮЙИ САК ҶАБИЛАЛАРИ ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	91
ЗИЁЕВА ДОНО ҲАМИДОВНАНИ ХОТИРЛАБ.....	99

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Lutfillo Payzullo o'g'li Mamasaidov,
Namangan davlat universiteti
Tarix kafedrasи o'qituvchisi

МАКТАБЛАРДА ТА'ЛИМ СИФАТИ, МОДДИЙ-ТЕХНИК БАЗАСИДАГИ ЎТУҚ ВА КАМЧИЛИКЛАР (Namangan viloyati Xalq ta'limi tizimi misolida)

For citation: Lutfillo P. Mamasaidov, THE QUALITY OF EDUCATION, SUCCESSES AND SHORTCOMINGS IN THE MATERIAL-TACHNICAL BASE OF SCHOOLS (on the example of Namangan region public education). Look to the past. 2021, vol. 4, issue 8, pp.39-45

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-8-5>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1991-2000 yillarda Namangan viloyati Xalq ta'limi tizimida amalga oshirilgan islohotlar, maktablarning moddiy-texnik bazasidagi kamchiliklar va yutuqlar yoritib berilgan. Shuningdek, dastlabki yillarda maktablarda ta'lim berish sifati, maktablarning o'quv va badiiy adabiyotlar va malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, kuni uzaytirilgan maktablarda o'quvchilarga yaratib berilgan shart-sharoitlar va mакtabdan tashqari fan hamda sport to'garaklarini olib borilishiga oid muammolar va ularni bartaraf etishdagi erishilgan yutuqlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, maktab, kitob, kutubxona, kadr, ta'lim-tarbiya, darslik, uzlusiz ta'lim, milliy dastur, rekonstruksiya.

Лутфилло Пайзулло угли Мамасайдов,

Преподаватель кафедры истории

Наманганского государственного университета

КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ В ШКОЛАХ, ДОСТИЖЕНИЯ И НЕДОСТАТКИ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ (На примере системы народного образования Наманганской области)

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются недостатки и преимущества материально-технической базы школ и реформы в сфере Народного образования Наманганской области в 1991-2000 годах. Так же в статье даны сведения о качестве образования, необходимости в учебной, художественной литературе и квалифицированных кадрах, об условиях для учеников в школах продленного дня, организации в них спортивных и предметных кружков.

Ключевые слова. Образование, школа, книга, библиотека, кадры, воспитание, учебное пособие, непрерывное образование, национальная программа, реконструкция.

Lutfillo P. Mamasaidov,
History teacher at the Namangan State University

THE QUALITY OF EDUCATION, SUCCESSES AND SHORTCOMINGS IN THE MATERIAL-TACHNICAL BASE OF SCHOOLS (on the example of Namangan region public education)

ABSTRACT

This article highlights the data about reforms made in Namangan region Public education, successes and shortcomings in schools' material-technical base. Besides, it also analyzes facts about the quality of education in the initial years, schools' need for qualified staff and resources, opportunities created for pupils in schools whose hours were prolonged, problems related to extracurricular activities and how successfully they were tackled.

Index Terms: education, school, book, library, staff, upbringing, textbook, continuous education, national curriculum, reconstruction.

1. Dolzarbliги:

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng jamiyat va davlat hayotida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlatimiz tomonidan, imperiya va sovet hokimiysi davrida yo‘qqa chiqarilgan ma’naviyat va madaniyatni qayta tiklash, fuqarolarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy o‘zlikni yanada boyitish hamda yangi mustaqil davlatni har sohada yuksaltirish uchun milliy kadrlar tayyorlash tizimini yaratishga katta ahamiyat berildi. Aynan bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1990- yil 4- avgustdagagi “O‘zbekiston Kompartiyasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi o‘z ma’ruzasida “Bizga kadrlar tayyorlashning maxsus milliy dasturi kerak” degan g‘oyani ilgari suradi. Bundan ko‘zlangan maqsad, malakali kadrlarni ko‘paytirish orqali O‘zbekistonda ilm-fan sohasini rivojlantirish edi. Shu asnoda, 1997- yil 29-avgustda “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, bepul 9 yillik umumiy o‘rta ta’lim va 3 yillik o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimi joriy etildi.

Bugungi kunga kelib Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4.4- “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” bandiga binoan, uzlusiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash siyosatini davom ettishrish; ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompuyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo’llamalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlar ko‘rish bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifasi ekanligini anglatadi.

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqlada ijtimoiy-gumanitar fanlariga oid bo‘lgan tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik tahlil usullaridan foydalanilgan. Namangan viloyati xalq ta’limi sohasiga oid ilmiy adabiyotlar deyarli chop etilmagan. Lekin, o‘z tadqiqotlarida Namangan viloyati xalq ta’limi sohasiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga G. R. Asanov, M.Mirzavaliev, Y.Qosimov Yu.Bozorov, Z.Haydarov, A.Isoqboev, V.Rajapov, B.Kamolov, R.Dadaboev, D.Nasriddinova, M.Abdullaeva va O’.Asqarova, U.Mansurov va I.Alimov kabilarning asarlarini kiritish mumkin. Amalga oshirilgan ko‘plab tadqiqotlar natijasida shu fikrga guvoh bo‘lish mumkinki, tarixchi olimlar tomonidan Namangan viloyati xalq ta’limi tizimiga oid ma’lumotlar atroficha yortilmagan va muayyan davrga oid bo‘lgan. Biz mazkur maqlani tayyorlash jarayonida Namangan viloyati xalq ta’limi tizimining rivojlanishiga oid ko‘plab mustaqillik davri manbalarini tadqiq etdik va maktablarda ta’lim sifati, moddiy-texnik bazasidagi yutuq va kamchiliklarni maqlada muayyan darajada yoritishga erishdik.

3. Tadqiqot natijalar:

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hududdidagi maktablar faoliyatini yaxshilash va ularda sifat ko‘rsatkichlarini oshirish ishlardan ko‘zlangan maqsad shu ediki, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli kitobida Sovet hokimiyati davrida ta’lim sohasi oxirgi yillarga kelib ancha yomonlashgani ya’ni, 1990 yilda respublikada ilm-fan va ta’lim sohasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar tarkibi achinarli ahvolga tushib qolganligi haqida fikr bildirgan edi[1. B 22]. Ammo mustaqillikdan so‘ng bunday holatlarni asta sekinlik bilan yaxshilash ishlari boshlanib, maktablar zamonaviy laboratoriya va kompuyster xonalari, chet tillarini o‘rganish uchun lingofon sinflar xonalari tashkil etilib, maktablar zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lishiga sa’y-harakatlar qilindi.

Mustaqillik yillarida Xalq ta’limi tizimida o‘ziga xos qiyinchiliklar bo‘lgan. Masalan, Namagan viloyatida 1991- yil yanvar holatiga viloyat maktablarda barcha fanlar bo‘yicha 54 ming dona, hususan Namangan shahar maktablarining 1990- yil yilgi holatga ko‘ra, 184 ming dona darsliklar yetishmasligi ma’lum bo‘lgan. Shu yili viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i I.Qozoqov ko‘plab maktablarda ayrim fanlardan darsliklar umuman yo‘qligi yoki bir nechta ekanligi hamda ko‘plab maktablarda sind doskasi va bo‘rning yo‘qligi yoki mavjudlari ham foydalanib bo‘lmasligini ta’kidlagan [2. Б. 2]. Ammo, bu muammolar keying yillarda bartaraf etilib, maktablarning ahvoli yaxshilana boshlagan.

Respublikamiz umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarga bilim olish bo‘yicha motivatsiyalar berish, ularni kelajakka bo‘lgan qiziqishlarini oshirish borasida 1992-yildan boshlab Xalq ta’lim vazirligi va Ulug’bek nomli jamg’arma bilan birgalikda Ulug’bek nomli stipendiya tashkil etilgan. Sipendiya uchun o‘tkaziladigan tanlovda o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari ko’lami, o‘zlashtirish kerak bo‘lgan ichki imkoniyatlari ya’ni, mantiqiy va obrazli tafakkur saviyasi, ijodiy yondasha olish qobiliyati va badiiy did xususiyatlari hisobga olingan. Tanlovdan jami bo‘lib, 3.794 o‘quvchi o‘tgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 9-10 sind o‘quvchilar umumiyligi sonining 0.5 foizini tashkil qilgan. Tanlov belgilangan barcha tartib qoidalar asosida Namangan, Jizzah, Samarqand Xalq ta’limi boshqarmalari hamda Qoraqalpog’iston Xalq ta’limi boshqarmasi tomonidan samarali tashkil etilgan. Tanlov natijasiga ko‘ra, 7 nafar o‘quvchi Ulug’bek nomli stipendiya g’olib bo‘lishgan [3. Б. 17-18].

Tanlovda Namanganlik faol qatnashgan Erqulov Ikrom, Rahmonov Sanjar, Abdullayev Abdumalik, Nasirova Nigora, Toshpo’latova Iqbola, Turg’unova Feruza kabi o‘quvchilar aqliy qobiliyati rivojlangan deb topilgan [4. Б. 21].

Viloyat maktablarida 1993- yilga kelib ta’lim sifati ko’tarilib, maktablar o‘rtasida “Yil maktabi” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tanlovning 1993- yil yakuniga ko‘ra viloyatning bir qator maktablari ta’lim-tarbiya masalalarida ilg‘or deb topilgan [5. Б. 1].

Shuningdek, O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya jarayonlarini yanada yaxshilash maqsadida 1992- yil noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat tasarrufida bo‘limgan ta’lim muassasalarini tashkil etish va litsenzialashtirish tartibi haqida”gi qaroriga muofiq, 1993- yil 11 fevralda Namangan viloyati hokimligining qarori asosida mustaqil ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Davlatimiz endigina oyoqqa turayotgan iqtisodiy qiyinchilik davrida maktablarda boshlang‘ich sind o‘quvchilar uchun bepul va yuqori sinflar uchun imtiyozli chegirmalar asosida ovqatlanish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Masalan, 1992- yil Chust tumani 3-maktabda 300 nafarga yaqin o‘quvchi bepul, 350 nafari esa imtiyozli tartibda ovqatlanirildi, 81 nafari esa uzaytirilgan guruhlarda tarbiyalandi [6. Б. 2]. Tumaning 5, 7, 11- maktablarida o‘quvchilar ovqatlanishi uchun sharoitlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularda qo‘srimcha xonalarning tashkil etilmaganligi, maktablarda vodoprovod suvining yo‘qligi, hamda 4, 5, 7, 11- maktablarda ovqatlanishni tashkil etishda sanitariya-gigiyena qoidalari buzilganligi aniqlandi [7. Б. 2].

To‘raqo‘rg‘on tumani maktablarida ham bepul ovqat berish ishlari yaxshi tashkil etilgan bo‘lib, 1991-1992 o‘quv yilda tuman maktablarida tahsil olayotgan I-V sind o‘quvchilarning barchasi 9 so‘mlik bepul nonushta, 50 foizli imtiyoz bilan VI-XI o‘quvchilarning ovqatlanishlari yo‘lga qo‘yilgan [8. Б. 1].

1993-1994 о‘кув yilli To‘raqo‘rg‘on tumanida 53 ta maktab bepul ovqatlanuvchi o‘quvchilar 376625 nafar smetada keltirilgan bo‘lib, amalda 376110 nafar o‘quvchi ovqatlangan. Bunday natija kelib chiqish sababi 1993-1994 о‘кув yilining qishki mavsumiga 12 ming kg kartoshka, 16 ming kg piyoz, 4 ming kg meva mahsulotlari ovqatlanish kombinati omboriga jamg‘arilgan [9. Б. 129-130].

Davlat tomonidan maktablarda ko‘plab imtiyozlarni tashkil etilishi o‘quvchilarning ta’lim va tarbiya jarayonlarini yaxshilash, ularning bilim olish salohiyatini oshirishga qaratildi. Shu bilan birga maktabni tamomlayotgan o‘quvchilarni ish bilan ta’minalash yoki boshqa sohalarga yo‘naltirish ham tashkil etilgan.

1995-1996 о‘кув yilida viloyat maktebalarida 36191 nafar IX sinfni, 17043 nafar XI sinflarni bitirgan o‘quvchilar bo‘lsa, bulardan 13437 nafari ishga, 10920 nafari turli o‘qishlarga joylandi, 19589 nafari esa X sinflarga tortildi [10. Б. 1].

Respublikamizda 1994-1995 о‘кув yillarga kelib, bolalar bog’chalarida xorijiy tillarni o’rgatish yo‘lga qo‘yilib, 500 ga yaqin maktablarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni o’rgatish va kompuyuter orqali darslarni olib borish ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Shu yilda umumta’lim maktablari tizimida 118 ta yangi litseylar va 77 ta gimnaziyalar tashkil etilib, ularda 41326 ta o‘quvchi ta’lim olgan. Bundan tashqari Oliy va o’tra maxsus ta’lim vazirligi tasarruffidagi bilim yurtlari qoshida 20 ta litsey va 2 ta gimnaziyalar faoliyat ko‘rsata boshlagan.

Shuningdek, Xalq ta’limi vazirligining qarori bilan 1993-yilda “Ta’lim to’g’risidagi qonun”ning 16-moddasiga muvofiq “O’zbekiston Respublikasida oilaviy ta’lim to’g’risida”gi nizom ishlab chiqilgan [11. Б. 3]. Mazkur nizomning asosiy maqsadi o‘quvchilarni bilim olish jarayonlarining har qanday bosqichida ota-onha ro’lini kuchaytirish va shu orqali o‘quvchilar bilim olish darajasini yaxshilash bo‘lgan.

1995-1996 о‘кув yiliga kelib, Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan qishloq joylarida jöylashgan hunar-texnika bilim yurtlarining 105 tasi hunar litseylariga, 54 tasi esa “Biznes makteb”lariga aylantirilib, o‘z faoliyatini boshlaganlar [12. Б. 45]. Mazkur o‘quv yilidan yutimizda yetti tilda darsliklar chop etilgan bo‘lib, “O’qituvchi” nashiryoti tomonidan 1995-yilda maktablar kutubxona jamg‘armasini to’ldirish maqsadida 77 nomda 26 mln 241000 nusxada o‘zbek va rus tillarida darsliklar nashr ettirish rejalashtirilgan bo‘lsa, bu darsliklarning 72 nomdagi 22 million nusxada darsliklar nashr etib, ulardan 62 nomdagi darsliklar to’liq miqdorda chop etilmagan.

Shuningdek, “O’zkitob” omboriga yetib kelgan 63 nomdagi darsliklarning 1 mln. 804 ming 196 ta nusxasi viloyatlarga yuborilgan. Bulardan, 56 nomdagi 1mln. 440 ming 614 ta nusxasi maktablarga yetib borgan. Bunga sabab “O’qituvchi” nashiryoti tomonidan rejalashtirilgan 12 nomdagi 3731000 nusxadagi darsliklar Rossiyaning “Charli” firmasi tomonidan chop etilgan. Ushbu darsliklarning 9 nomdagisi Respublikamizga to’liq yetib kelmagan. Darsliklarning yetib kelmasligiga sabab, darsliklarning harid qilinishiga mo’ljallangan pullarni o‘z vaqtida ajratilmaganligi bo‘lgan [13. Б. 46].

Bu davrda O’zbekistonda “O’qituvchi” nashriyotidan tashqari “Bilim” (Qoraqalpoq), “Просвещение” (rus), “Maorif” (tojik), “Rauai” (qozoq), “Mekteb” (qirg’iz), “Mairif” (turkman) tillarida darsliklar chop etilgan bo‘lib, bu darsliklar umumiy hisobda 423 nomdagi 30 mln. 773 ming 40 nusxa chop etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, shulardan 106 nomdagi 20 mln. 150 ming 880 ta nusxada chop etilgan, mazkur darsliklarning faqatgina 16 mln. 872 ming 465 ta nusxasi belgilangan joylarga yetib borgan [14. Б. 59].

Namangan viloyati umumta’lim maktablariga 1995-1996 о‘кув yillarida o‘quv darsliklariga 77 nomdagi 1 mln. 876 ming 300 ta darsliklar uchun ehtiyoj mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Respublika kutubxona jamg‘armasidan Namangan viloyatga 57 nomdagi 1 mln. 337 ming 364 ta darsliklar yuborilgan, ammo viloyatga 46 nomdagi 1 mln. 24 ming 136 ta darsliklar yetib kelgan [15. Б. 58]. E’tibor berib qaralgada, Namangan viloyatiga 11 turdagagi 313 ming 238 nusxadagi o‘quv darsliklari yetib kelmagan.

Yuqorida darsliklar bo‘yicha muammolarning asosiy sabablari davlatimiz bu davlarda iqtisodiy qiyinchilikni boshidan o‘tkazayotgani va darsliklar chop etish bo‘yicha otaliq tashkilotlar yoki homiylarning kamligi bu davrning ta’lim sohasidagi eng ko‘zga ko‘rinarli muammosi edi.

Lekin, davlatimiz tomonidan 1995-yillarda umumta'lim maktablarini moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida shu yilda 30 dan ortiq turli ko'rinishdagi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzilangan. Natijada 1995-yilda 22.2 mln. so'mlik o'quv anjomlari, tuli geografik kartalar, jadvallar, albomlar, bukletlar, gramplastinkalar, gerbariyalar, o'yinchoq va o'yin vositalari, fizika, kimyo va biologiya fanlariga oid o'quv-laboratoriya anjomlari va boshqalar sotib olinib, tarqatilgan. Bu holat 1994-yilga nisbatan 10 barobar ko'p demakdir [16. Б. 11]. 1995-yil 25 iyulda Xalq ta'limi vazirligining "Orginal ko'rgazmali qurollarni yaratish bo'yicha" ishlab chiqilgan buyrug'iga asosan shu yilda 50 mln. so'm mablag' ajratiladi [17. Б. 16-17].

1997- yilga kelib, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" qabul qilinishi asosida mamlakatimida ta'lim tizimi rivojlandi va shu yildan birinchi sinfga qabul qilingan o'quvchilarga Prezident sovg'alari berish boshlandi.

Masalan, Namangan tumaniga 1998-1999 o'quv yilida maktab ostonasiga qadam qo'yayotgan 4210 nafar o'g'il-qizlarga Prezident sovg'asi: sumka, darsliklar va 12 turdag'i o'quv qurollari bepul topshirilgan. Bundan tashqari, 2-3 sinflar uchun o'quv darsliklari topshirilgan va yetmagan darsliklar esa ota-onalari tomonidan sotib olib berilgan. O'quvchilar orasida ijtimoiy yordamga muhtoj yoki ko'p farzandli oilalarning farzandlariga darsliklar bepul tarqatildi [18. Б. 2].

Darsliklarning pulli bo'lish tartibi 1998- yil 5 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan 1998-1999 o'quv yilidan boshlab, umumiyligi o'rta ta'lim maktabida darsliklar tarqatish pulli shaklga o'tgan. Bu davrda viloyat hududlarida kitob sotuvchi do'konlar yo'q edi. Tumanlarda kitob do'konlarining mavjud emasligi tufayli tuman xalq ta'limi bo'limi darsliklarni olib kelib, barcha maktablarda sotishni yo'lga qo'yganligi va har bir darslikning o'rtacha bahosi 100-150 so'm atrofida bo'lganligi ta'kidlanadi [19. Б. 2].

Bundan tashqari, Namangan tumani xalq ta'lim bo'limi esa 1998-1999 o'quv yilida o'quvchilar uchun darsliklar masalasini hal etishda tuman "Nuroniy" jamg'armasi homiyligida 30503 dona darslik kitoblar olib kelib, sotuvga chiqariladi. Tuman maktablarining birinchi sinfiga qabul qilinayotgan o'quvchilar uchun Prezident sovg'asi sifatida 24 nomdagi darsliklar maktablarga sovg'a sifatida yetkazib beriladi [20. Б. 2].

Maktablarga davlat tomonidan berilayotgan e'tiborga javoban viloyat yoshlari Respublika fan olimpiadalarida munosib qatnashib, faxrli o'rinnarni egalladilar. Birgina 1997- yili Respublika fan olimpiadasida viloyatdan 19 nafar yoshlarning 9 nafari faxrli o'rinnarga ega bo'lib, Respublikada birinchi bo'lishga muvaffaq bo'ldilar. Shu yili viloyatdagi maktablarning 1249 nafar o'quvchilar o'z bilimlarini ochiq namoyon etdi [21. Б. 1].

Shu bilan birga, 1996-1997-o'quv yilida Respublika Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun bo'lган test jarayonlarida viloyatimizdagi abiturentlar o'zbek tili, biologiya, tarix, ximiya, geografiya, fanlaridan boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshi ko'rsatkichga erishganlar [22. Б. 5.].

Keyingi yillarda esa bu ko'rsatkich oldingi yillarga nisbatan yuqori darajaga ko'tarilgan. 1999 yilda viloyatdan 19 nafar o'quvchilar Respublika fan olimpiadasida qatnashgan bo'lsa, bularning 7 nafari oliygohlarga imtihonsiz kirish huquqiga ega bo'lganlar. Hamda viloyatimiz maktablarda ta'lim oluvchi 35 % o'quvchilar fanlar kuchaytirilgan sinflarda ta'lim olishlari tufayli 1998 yilda 2658 nafar, 1999 yilda esa 2962 nafar [23. Б. 141], 2001 yilda 4796 nafar [24. Б. 6] o'quvchilar oliygohlarda talaba bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi. Umuman olganda, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va DTS qabul qilinishi umumta'lim maktablari tizimining rivojlanishga sabab bo'lgan.

Dastlabki yillarda ta'lim sifatini oshirishning eng muhim jihatlaridan biri kadrlar masalasi hisoblanib, 1995-yilda viloyatda 27011 nafar pedagog xodimlar mavjud bo'lib, shulardan 71.2 % (19238) oliy ma'lumotli bo'lgan, bu holat 1996 yilda 28337 pedagog xodimlarning 20041 tasi (70.7 %) oliy, 1129 tasi to'liqsiz oliy, 6658 tasi o'rta-maxsus, 509 tasi esa umumiyligi o'rta ma'lumotli o'qituvchilar bo'lgan [25. Б. 1]. 2018-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 27889 tasi (84,1%) tashkil etgan [26. Б. 1].

Yuqoridagi ma'lumotlarni o'zaro tahlil qilganimizda, 1996-yildan to 2018-yilgacha bo'lgan davrda oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni 14 % foizga oshgan bo'lsada, bu ko'rsatkich shu davr uchun

yeterli darajada bo'limgan, bunga esa aholi sonining yil sayin oshib borishi, Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining kamligi yoki o'qituvchilarining mehnat nafaqasiga chiqishlari hamda oliv ma'lumotli erkak o'qituvchilarining ko'p qismi harbiy yoki HMQO o'z ish faoliyatini davom ettirishlari viloyatdagi o'qituvchilar sonini oshmasligiga sabab bo'lgan. Sodda qilib aytganda, o'quvchilar soniga nisbatan o'qituvchilar soni yeterli bo'limgan.

Masalan, 1997-1998 o'quv yilida viloyatimizdagi umumta'lim maktrablariga 6 yoshli bolalarning qabul qilinishi va 9-sinf bitiruvchilarining o'qishni to'liq davom ettirishlari viloyatda 1695 nafar pedagog o'qituvchiga ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limga (1020 ta), chet tillariga (139 ta), o'zbek tili va adabiyotiga (96 ta), matematika (84 ta), tarix va huquq faniga (74 ta), kimyo (59 ta) fanlariga kadrlar zarurati mayjud bo'lgan. Kadrlar yetishmovchiligi ayniqsa, Namangan shahri, Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida yuqori bo'lgan [27. Б. 3-4.].

1996-yilda umumta'lim maktablarida sport sohasini rivojlantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Masalan, xalq ta'limi tizimiga qarashli bolalar va o'smirlar sport maktablarning sport bo'limlari uchun 3000 ta futbol to'pi, 1140 ta futbo'l kiyimlari komplekti, 1520 ta sport kostyumlari sotib olib tarqatilgan.

Namangan viloyatida 32 ta bolalar uchun mo'ljallangan futbo'l maydonlari mavjud bo'lib, respublika miqiyosida esa 9545 ta maktabning 8859 tasi yoki 92.82% ida futbo'l maydonlari mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, 442 ta kasb-hunar maktabining 322 tasida futbol maydonlari mavjud bo'lgan, bu esa o'quvchilarining jismoniy rivojlanishiga katta ta'sir o'rkarzgan. Shuningdek, Namangan viloyatida boshqa viloyatlar singari futbolni chuqur o'rgatadigan 7 ta maxsus sinflar ochilgan [28. Б. 83-84].

Ammo, keyingi davrlarda sport sohasini rivojlantirish masalasi ancha susaygan. Misol uchun, 1999 yil holatiga ko'ra, viloyatdagi 57 ta maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida futbol maydonlarining yo'qligi yoki Norin, Pop, To'raqo'rg'on tumanlaridagi 180 ta maktabning 100 tasida sport zallari mavjud bo'limgan [29. Б. 138]. Bu holat esa havoning sovuq kunlarida bolalar uchun turli noqulayliklar kelib chiqishiga hamda sog'ligining yomonlashishiga jiddiy ta'sir o'tkazgan.

4. Xulosalar:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, har davrning o'ziga xos kamchiliklari va muammolari bo'lishi ehtimoliy holatdir. Ammo shunday bo'lsada, ta'lim sohasini rivojlantirishdagi davlatimiz va xalqimizning fidokorona mehnatlari keyingi yillarda o'z samarasini berib, respublikamizdagi umumta'lim maktablarining yangi zamonaviy ko'rinishga ega bo'lib, ularda ta'lim-tarbiya masalalarining kuchayishiga hamda ta'lim berish sifatining yuqori darajaga ko'tarilishiga muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Иқтибослар/Сноски/ References:

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – В. 22. (Karimov I.A. Uzbekistan is about to gain its independence. - Tashkent: Uzbekistan, 2012. - P.22.)
2. Ёш авлод тарбияси хақида ўйлар // Наманган хақиқати. – 1991. – № 3. – Б. 2. (Thoughts about the upbringing of young generation // Namangan's truth. - 1991. - #3. - P.2.)
3. MDA M-26 фонд. 1-рўйхат.7-иш. Б.17-18. (The Central State Archive, Fund M-26, list 1, work 7, P.17-18)
4. MDA M-26 фонд. 1-рўйхат.7-иш. Б. 21. (The Central State Archive, Fund M-26, list 1, work 7, P.21)
5. Намунали илмгоҳлар // Мураббий. – 1993. – №3. – Б. 1.(Respectful schools//Instructor - 1992. - #3. P.1.)
6. Қаюмов А. Эътироф этиш ўринли // Чуст ҳақиқати. – 1992. – № 60. – Б. 2. (Qayumov A. It is worth praising // Chust's truth. - 1992. #60. - P.2.)
7. Умаров А. Ўқувчилар овқатланиши қандай ташкилланмокда // Чуст ҳақиқати. – 1992. – № 54. – Б. 2. (Umarov A. How well is the pupils' nutrition organized //)

8. Ўқувчилар овқатланишида тартиб бўлсин // Машъал. – 1993. – № 10. – Б. 1. (There should be a discipline in pupils' eating.// Flame...)
9. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 43-иш. Б.129-130. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 43, P.129-130.)
10. Убайдуллаев Ҳ. Вилоят халқ таълими: Чукур ислоҳотлар йўлида // Мураббий. – 1997. – №19. – Б. 1.
11. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 139-иш. Б. 3. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 139, P.3)
12. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. Б. 45. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 399, P.45)
13. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. Б. 46. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 399, P.46)
14. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. Б. 59. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 399, P.59)
15. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. Б. 58. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 399, P.58)
16. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 519-иш. Б. 11. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 519, P.11)
17. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 519-иш. Б. 16-17. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 519, P.16-17)
18. Кўчкоров Ю. Фарзандингиз мактабга тайёрми // Истиқлол. – 1998. – № 49. – Б. 2. Quchkorov Y. Is your child ready to go to school? // Independence...)
19. Номозов О. Дарсликлар пулли бўладими // Поп тонги. – 1998. – № 23. – Б. 2. (Namozov O. Will the textbooks be chargeable? // The dawn of Pop...)
20. Ҳасанов Т. Давр талаблари асосида // Истиқлол. – 1998. – № 57. – Б. 2. (Hasanov T. On the basis of the period's demands// Independence...)
21. Гофуров М. Халқ таълимида “Чақнаш” // Мураббий. – 1997. – № 10. – Б. 1. (G'ofurov M. "Flushing" in the public education// Instructor...)
22. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 136-иш. Б. 5. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 136, P.5.)
23. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 217-иш. Б. 141. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 217, P.141.)
24. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 294-иш. Б. 6. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 294, P.6.)
25. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 162-иш. Б. 1. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 162, P.1.)
26. Вилоят халқ таълими бошқармасининг 2018 йилдаги ҳисоботлари. – Б. 1. (Reports of the region's public education department in 2018)
27. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 177-иш. Б. 3-4. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 177, P.3-4.)
28. ЎМА М-26 фонд. 1-рўйхат. 518-иш. Б. 83-84. (National Archive of Uzbekistan, Fund M-26, list 1, work 518, P.83-84)
29. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 217-иш. Б. 138. (Namangan region State Archive, Fund 645, list 1, work 217, P.138.)